



Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1- iyul holatiga ko'ra viloyatda 3 449 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 773 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,4 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 534 tasi (15,5 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 319 tasi (9,2 %) to'qimachilik ishlab chiqarishga, 319 tasi (9,2 %) kiyim ishlab chiqarishga va 302 tasi (8,8 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- iyul holatiga ko'ra



II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan **26 335,0** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi **108,2** % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Buxoro viloyati	26 335,0	108,2
<i>tumanlar:</i>		
Olot tumani	590,9	110,6
Buxoro tumani	1 194,4	114,2
Vobkent tumani	793,4	112,6
G'ijduvon tumani	1 931,0	109,7
Kogon tumani	1 123,4	109,2
Qorako'l tumani	631,6	106,3
Qorovulbozor tumani	10 442,3	108,0
Peshku tumani	747,3	112,3
Romitan tumani	976,0	107,7
Jondor tumani	638,2	107,2
Shofirkon tumani	499,1	108,1
Buxoro sh.	2 781,9	113,1
Kogon sh.	859,1	110,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumanida (**504 311,4** ming so'm), Kogon shahrida (**12 268,9** ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (**12 468,4** ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **106,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, Buxoro tumanida (**112,2** %), Buxoro shahrida (**111,6** %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **23 775,3** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (**90,3 %**) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **492,6** mlrd so'm (**1,9 %**), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **1 849,5** mlrd so'm (**7,0 %**) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda **217,6** mlrd so'm (**0,8 %**) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyun oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: yumshoq bug'doy va spelta uni – 17 374,5 tonna, o'simlik yog'i (tozalangan) – 5 112,8 tonna, ip gazlamalari – 3 705,3 ming kv.m, avtomobil benzini – 539,6 ming tonna, xom yoki tozalanmagan oltingugurt – 502,1 tonna.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar- iyun *	2025-yil yanvar- iyun *	2026-yil yanvar- iyun
Aroq-ming l 100% li spirt	2 200,7	1 226,1	1 440,1
Avtomobil benzini, ming t	525,9	510,9	539,6
Xom yoki tozalanmagan oltingugurt, t	657,4	873,4	502,1
Dizel yoqilg'isi, ming t	128,6	201,7	266,0
Mazut, ming t	43,2	34,2	26,3
O'simlik yog'i (tozalangan), t	7 043,1	5 768,8	5 112,8

Paxta tolasi, t	35 454,0	36 130,0	40 027,0
Paxta chigiti, t	59 239,0	56 554,0	40 749,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	15 359,1	19 058,8	17 374,5
Ip gazlamalari, ming kv.m	10 673,5	8 841,4	3 705,3

**2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy
faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Jami sanoat tarkibidagi koks va neft mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,9 % (2025-yilning yanvar – iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,7%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,9 % (2025-yilning yanvar- may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025-yilning yanvar- iyun oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,9 % (2,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 53,3 % (48,1 %), quyi texnologiyali 44,7 % (49,5 %) ni tashkil etgan.





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
hajmi (yirik korxonalar bo'yicha)**

2026-yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 7,0 % ga ko'paygan, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 88,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar- iyun*	2025-yil yanvar- iyun *	2026-yil yanvar- iyun
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	881,3	772,3	825,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	427,0	321,1	282,6

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlarini taqsimlash bo'yicha xizmatlar **19,7 %** ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **21,0 %** ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,4 %** ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar- iyun*	2025-yil yanvar- iyun *	2026-yil yanvar- iyun
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	15 228,2	15 667,2	18 952,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash	199,4	204,5	207,3



va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm			
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar mln so'm	87 209,5	93 040,6	111 365,2

**2024-2025-yillarning yanvar- iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xom-ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat



tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Buxoro viloyat Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Dehqonov
65 223-80-42 (8010)

